



XORAZMSHOHLAR DAVLATINING SO'NGGI BUYUK HUKMDORI – JALOLIDDIN MANGUBERDI

Meyliyeva Shaxrizoda Rajjaboy qizi

“Ichon-Qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Jaloliddin Manguberding hayoti, mo'g'ullar istilosiga qarshi olib borgan qahramonona kurashi hamda Vatan ozodligi yo'lidagi fidokorona faoliyati yoritilgan. Shuningdek, uning sarkardalik mahorati, tarixiy manbalar asosida tutgan o'rni va bugungi avlod uchun ibrat bo'ladigan fazilatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Manguberdi, Xorazmshohlar davlati, mo'g'ullar istilosi, Chingizxon, vatanparvarlik, ozodlik kurashi, sarkardalik, tarixiy manbalar, Xorazm, milliy qahramon.

THE LAST GREAT RULER OF THE KHOREZM SHAH STATE – JALALIDDIN MANGUBERDI

ABSTRACT

This article covers the life of Jaloliddin Manguberdi, his heroic struggle against the Mongol invasion, and his selfless work for the liberation of the Motherland. It also analyzes his military skills, his role based on historical sources, and his qualities that serve as an example for today's generation.

Keywords: Jaloliddin Manguberdi, the state of the Khorezmshahs, the Mongol invasion, Genghis Khan, patriotism, freedom struggle, leadership, historical sources, Khorezm, national hero.



Xorazmshohlar sulolasining eng mashhur vakillaridan biri bo'lgan Jaloliddin Manguberdi o'n bir yil davomida mo'g'ullarning g'arbiy o'lkalarga bostirib kirishiga qat'iy to'siq bo'lib turdi. U g'anim oldida bosh egmadi, tiz cho'kmadi va Vatan ozodligi yo'lida jonini fido qildi. Uning mo'g'ullar istilosiga qarshi olib borgan qahramonona kurashi o'sha davr tarixchilari asarlarida batafsil yoritilgan. Jumladan, Ibn al-Asirning «Al-komil fi-t-tarix» (1230-yil), Shihobuddin Muhammad an-Nasaviyning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni» hamda «Nafsat ul-masdur» (1234-yil), Alouddin Atomalik Juvayniyning «Tarixi jahongushoy» (1260-yil) va Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning «Jome' ut-tavorix» (1302–1311-yillar) asarlari shular jumlasidandir.

Vatan, yurt va ona zamin unda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz hamda yaqinlarimiz tufayli muqaddas va qadrlidir. Vatan ostonadan boshlanadi, bu ostonaga esa sajdagoh kabi azizdir. Chunki unda bizni voyaga yetkazgan ota-onamiz, qarindosh-urug'larimiz va xalqimiz yashaydi. Har bir xalqning nomi uning buyuk farzandlari, allomalari, jasur sarkardalari va qahramonlari tufayli tarixda mangu yashaydi. Ana shunday milliy qahramonlarimizdan biri Jaloliddin Manguberdidir.

Jaloliddin Manguberdi parokandalikka yuz tutgan yurtni birlashtirishga intildi, butun dunyoni dahshatga solgan Chingizxon bosqiniga qarshi mardona kurash olib bordi. Uning jasorati va matonatida bugungi O'zbekiston xalqining erksevarligi, vatanparvarligi va yuksak ma'naviy qiyofasi o'z ifodasini topgan. Jaloliddin Manguberdi o'z davridayoq dunyoga dong taratgan buyuk sarkarda bo'lib, uning shon-shuhrati bugungi kungacha saqlanib kelmoqda.

Shihobuddin Muhammad an-Nasaviy «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni» asarida Jaloliddin Manguberдини quyidagicha ta'riflaydi:

«U bug'doyrang, o'rta bo'yli, turkiy qiyofali va turkiy tilda so'zlashadigan kishi edi. Shu bilan birga, fors tilini ham yaxshi bilardi. Uning mardligi va jasoratiga



kelsak, janglardagi faoliyatini eslashning o‘zi kifoya. U sherlar ichidagi eng dovyurak sher, chavandozlar orasidagi eng qo‘rqmasi, lashkarlar orasidagi eng botiri edi. U yuvosh va muloyim tabiatli, jahldor emasdi. Nihoyatda jiddiy bo‘lib, kam kulardi, faqat ba‘zan jilmayib qo‘yardi. Kamgap, rostgo‘y va adolatparvar inson edi. Biroq u yashagan notinch davr, urushlar va g‘alayonlar uning fe‘l-atvoriga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. U qo‘l ostidagi xalqning og‘ir ahvolini yengillashtirishni istardi, ammo zamonasining shafqatsiz qonunlari ba‘zan uni qattiqqo‘llik qilishga majbur etardi.»

Alouddin Muhammad va uning turkman kanizagi Oychechakdan 1198-yilda tug‘ilgan Jaloliddin 1215-yilda G‘azna, Bomiyon, G‘ur, Bust, Takinobod, Zamindovar hamda Shimoliy Hindiston hududlariga hokim etib tayinlanadi va taxt vorisi deb e‘lon qilinadi. Biroq buvisi Turkon xotun hamda qipchoq amirlarining qarshiligi tufayli vorislik huquqidan mahrum qilinib, uning o‘rniga ukasi Qutbiddin O‘zloqshoh voris etib belgilanadi.

Jaloliddin yoshligidan otasi bilan birga janglarda qatnashib, mardligi, jasorati va sarkardalik iste‘dodini namoyon etadi. Mo‘g‘ullar bosqini oqibatida mamlakat parokanda bo‘lib qolgan bir paytda Alouddin Muhammad 1220-yilda farzandlarini huzuriga chorlab, vafoti oldidan Jaloliddin Manguberdini Xorazm hukmdori deb e‘lon qiladi.

Urganch mudofaasida qatnashish uchun yetib kelgan Jaloliddin bu yerda Turkon xotunning akasi Xumor Tegin sulton deb e‘lon qilinganini hamda o‘ziga suiqasd tayyorlanayotganini sezadi. Shundan so‘ng u uch yuz nafar suvoriy bilan Urganchni tark etib, Xuroson tomon yo‘l oladi. Nishopur yaqinida o‘zidan ikki baravar ko‘p bo‘lgan dushman qo‘shinini mag‘lub etib, shaharga kiradi. Bu yerda qo‘shin to‘plab, Qandahorni qamal qilib turgan mo‘g‘ullarga hujum qiladi va ularni tor-mor etadi.



1221-yilda Gʻaznaga yetib kelgan Jaloliddinga qaynatasi, Hirot voliysi Amin al-Mulkdan tashqari halaj qabilasi boshligʻi Sayfiddin Igʻroq, Balx voliysi Aʻzam Malik, afgʻonlar sardori Muzaffar Malik hamda qorluqlar boshligʻi Hasan Qorluq oʻz lashkarlari bilan qoʻshiladilar. Ularning birlashgan qoʻshini Valiyon qalʼasini qamal qilayotgan moʻgʻullar ustidan ilk yirik gʻalabani qoʻlga kiritadi.

Bu magʻlubiyat xabarini eshitgan Chingizxon Shiki Xutuxu boshchiligidagi 45 ming kishilik qoʻshinini Jaloliddin Manguberdiga qarshi yuboradi. Gʻazna yaqinidagi Parvon dashtida boʻlib oʻtgan jangda Jaloliddin porloq gʻalabaga erishadi. Biroq qoʻlga kiritilgan oʻlja ustidagi kelishmovchilik sababli Amin al-Mulkdan tashqari boshqa sarkardalar uni tark etadilar.

Bu vaziyatdan foydalangan Chingizxon shaxsan oʻzi Jaloliddin Manguberdiga qarshi yurish boshlaydi. 1221-yil 25-noyabrda Sind (Hind) daryosi boʻyida yuz bergan mashhur jangda Jaloliddin Manguberdi mislsiz jasorat va matonat bilan kurashadi. Garchi bu jangda magʻlubiyatga uchragan boʻlsa-da, uning mardligi va sarkardalik mahorati hatto Chingizxonning oʻzi tomonidan ham yuksak eʼtirof etilgan.

1224-yilgacha Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindiston hududida oʻz davlatini mustahkamlash va qoʻshinini qayta tiklash yoʻlida izchil kurash olib bordi. Uning bu faoliyati moʻgʻullarning Hindiston sari yurishlariga jiddiy toʻsiq boʻlib xizmat qildi. Biroq mahalliy hukmdorlarning oʻzaro kelishmovchiligi va asossiz qarshiliklari tufayli Jaloliddin Hindistonni tark etib, Iroq tomon yoʻl oldi. Bu yerda Kirmon va Isfahon hokimlari, shuningdek, ukasi Gʻiyosiddin Pirshoh hamda uning amirlari Jaloliddinning hokimiyatini tan oldilar.

1225–1230-yillarda Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjon, Gruziya va Iroq hududlaridagi mahalliy hukmdorlarni oʻziga boʻysundirdi hamda bu hududlarga bostirib kirgan moʻgʻul qoʻshinlarini bir necha bor magʻlubiyatga uchratdi. Xususan,



1227–1230-yillar davomida u mo‘g‘ullarga qarshi qator muvaffaqiyatli janglar olib bordi.

Jaloliddinning asosiy maqsadi mahalliy hukmdorlarni yagona ittifoqqa birlashtirib, mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi umumiy kurash tashkil etish edi. Ammo u bu niyatini amalga oshira olmadi. Aksincha, Ko‘niya (Rum) sultoni Alovuddin Kayqubod Jaloliddinga qarshi bo‘lgan kuchlarni birlashtirishga erishdi. Natijada Jaloliddin bir vaqtning o‘zida ikki tomondan xavf ostida qoldi.

O‘sha davrda hukmdorlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchsizlik, ahillik va birlikning yo‘qligi, ichki nizolar hamda xiyonatlar chet el bosqinchilariga qarshi kurashni yanada murakkablashtirdi. Shu sababli ozodlik va mustaqillik bayrog‘ini baland ko‘targan Jaloliddin Manguberding kuch-qudrati tobora zaiflashib bordi.

Nihoyat, 1231-yilda Jaloliddin Manguberdi Kurdiston tog‘lari hududida fojiali ravishda halok bo‘ldi. Uning vafoti mo‘g‘ullar istilosiga qarshi olib borilgan ozodlik kurashining eng yorqin sahifalaridan biriga yakun yasadi. Shunga qaramay, Jaloliddin Manguberdi xalqimiz tarixida Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida fidokorona kurashgan buyuk sarkarda hamda milliy qahramon sifatida abadiy ehtirom bilan tilga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). – Toshkent, 2000.
2. Istoriya Uzbekistana. – Toshkent: Fan, 2012.
3. N. Mallayev. Musulmonlar sultoni. – Toshkent: Sharq, 2018.
4. Hamdam Sodiqov. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent: ART FLEX, 2009.
5. M. Yo‘ldosheva. Sulton Jaloliddin. – Toshkent: Cho‘lpon, 2021.
6. M. Yo‘ldosheva. Turkon xotunning kibri. – Toshkent: Cho‘lpon, 2020